



elita^{uz}

Elektron Ilmiy
Jurnal

No.3 (2)
2024

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Abdihakimov Farhod Zafar o'g'li</i> INNOVATSION TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI VA MOHIYATI	3
<i>Jumaniyozova Zarnigor Maxammadi qizi</i> OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI KORRUPSIYAVIY HOLATLARNI SODIR ETUVCHI SHAXSLAR TASNIFI	19
<i>Tilavova Sadaf To'lqin qizi</i> O'ZBEKISTON VA GERMANIYADA TADBIRKORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA TABIATI	26
<i>Qozixonova Duraxshon Nasriddinovna</i> ISLOM HUQUQIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA HALOLLIK TAMOYILI	33
<i>Aliyeva Marjona Obid qizi</i> ELEKTRON TIJORATDA SHARTNOMAVIY MUNOSABATLARGA OID QONUNCHILIKNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	42
<i>Isoqov Ahmadali Komiljon o'g'li</i> SUD ISHLARINI YURITISHDA SHAFFOFLIKNI TAMINLASH ZARURATI VA MOHIYATI	52

OLIV TA'LIM TIZIMIDAGI KORRUPSIYAVIY HOLATLARNI SODIR ETUVCHI SHAXSLAR TASNIFI

Jumaniyozova Zarnigor Maxammadi qizi | zarnigorjumaniyozova@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimidagi korrupsiyaviy holatlar, ular qay ko'rinishda sodir etilishi va aynan kimlar tomonidan sodir etilishi bayon etiladi. Oliy ta'limning qaysi bo'g'inida kimlar korrupsiyaviy jinoyatlarni sodir etishi, qaysi korrupsiyaviy jinoyatlar ko'p takrorlanishi hamda bunga sabab bo'luvchi omillar tahlil etiladi. Oliy ta'lim tizimida korrupsiyaviy qilmishlar sodir etuvchi shaxslar aniq misollar yordamida yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim tizimi, oliy ta'lim muassasasi, universitet, professor, talaba, o'qituvchi, korrupsiya, korrupsiyaviy jinoyat.

CLASSIFICATION OF PERSONS PERMITTING CORRUPTIVE SITUATIONS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Jumaniyozova Zarnigor Makhammadi qizi

Master's degree student of Tashkent State University of Law

Abstract. This article describes the corrupt situations in the higher education system, how they are committed and who exactly commits them. At which level of higher education, who commits corrupt crimes, which corrupt crimes are repeated the most, and the factors causing this are analyzed. Individuals who commit corrupt acts in the higher education system are highlighted using specific examples.

Key words: higher education system, higher education institution, university, professor, student, teacher, corruption, corrupt crime.

КЛАССИФИКАЦИЯ ЛИЦ, ДОПУСКАЮЩИХ КОРРУПЦИОННЫЕ СИТУАЦИИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Жуманиёзова Зарнигор Махаммади кизи

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье описаны коррупционные ситуации в системе высшего образования, как они совершаются и кто именно их совершает. На каком уровне высшего образования, кто совершает коррупционные преступления, какие коррупционные преступления повторяются чаще всего, и анализируются факторы, вызывающие это. На конкретных примерах выделены лица, совершающие коррупционные действия в системе высшего образования.

Ключевые слова: система высшего образования, высшее учебное заведение, вуз, профессор, студент, преподаватель, коррупция, коррупционная преступность.

Kirish. Oliy ta'lim tizimidagi korrupsiyani amalga oshiruvchi shaxslar kim ekanligini aniqlash uchun, avvalo, oliy ta'limda qanday korrupsiyaviy jinoyatlar, qilmishlar sodir etilishini aniqlashtirib olish maqsadga muvofiq. Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida javobgarlik belgilangan quyidagi ijtimoiy xavfli qilmishlar korrupsiyaviy jinoyatlardir:

- O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish;
- Jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish yoki o'tkazish;
- Budget va smeta-shtat intizomini buzish;
- Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish;
- Hokimiyat harakatsizligi;
- Pora olish;
- Pora berish;
- Pora olish va berishda vositachilik qilish;

- Xizmatchini pora evaziga og'dirish;
- Tovlamachilik yo'li bilan haq berishni talab qilish;
- Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish;
- Yolg'on guvohlik berish;
- Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish.

Ushbu korrupsion jinoyatlardan oliy ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladiganlari bular, shubhasiz, pora olish, pora berish, pora olish va berishda vositachilik qilish, xizmatchini pora evaziga og'dirish, hokimiyat yoki mansab vakolatidan chetga chiqish kabi jinoyatlar hisoblanadi. Ushbu jinoyatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi maxsus moddalar bilan kvalifikatsiya qilib qo'yilgan bo'lib, jinoyatni sodir etgan shaxslar aybi isbotlansa, muayyan jazoga mahkum etiladilar. Endigi masala, ushbu jinoyatni sodir etuvchi subyektlarni aniqlash hamda tasniflashdir.

Asosiy qism. Oliy ta'limda korrupsiyani biz ikkiga bo'lishimiz mumkin. Biri bu kichik ko'rinishdagi (masalan, pora evaziga o'qituvchidan yaxshiroq baho olish) korrupsiya hamda katta, yirik korrupsiya (masalan, universitet moddiy texnik bazasini yaxshilash uchun ajratilgan mablag'ning ma'lum miqdorini mansabdor shaxslar tomonidan o'zlashtirilishi). Shu jihatdan korrupsiyaviy holatlarni sodir etuvchi shaxslarni ham yirik korrupsiyaviy jinoyat sodir etuvchilar hamda mayda korrupsiyaviy jinoyat sodir etuvchilar sifatida turlashimiz mumkin. Ammo korrupsiya katta miqdorda yoki kichik bo'lishidan qat'iy nazar jamiyat uchun bir xil zarar keltiruvchi illatdir. Shunday qilib, oliy ta'lim tizimidagi quyidagi shaxslar asosan korrupsiyaviy holatlarni sodir etuvchi subyektlar bo'ladilar:

O'qituvchi, pedagoglar. Oliy ta'lim dargohida biror moduldan dars beruvchi ma'ruzachi yoki seminar o'qituvchisi korrupsiyaviy holatlarni sodir etuvchi shaxslardan biri hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlangani singari semestr ballarini qo'yishda to'la shaffof tizim shakllanmagan bo'lib, fan o'qituvchilari o'zi o'qitayotgan moduldan talabalari "yiqilishi", eng kamida 56 ball yig'a olmay qolishini oldini olish maqsadida, o'zlari aralashishi mumkin bo'lgan baholash bosqichidagi (oraliq nazorat) ballarni sun'iy ravishda ko'paytirib qo'yadilar. Chunki har bir ta'lim muassasasining ichki tartib qoidalariga asosan pedagog bir semestr davomida dars bergan moduldan talaba o'zlashtirolmay, imtihondan "yiqilishi" o'qituvchiga tegishli ta'sir chorasining ko'rilishiga olib keladi[1]. Shu

holatning oldini olish uchun ham o'qituvchi ballni haqqoniy emas, balki o'z manfaatini ko'zlab, "ko'tarib" qo'yadi. Yoki boshqa holat, masalan, o'zi bitiruv malakaviy ishida ilmiy rahbarlik qilayotgan talabaga yon bosishi, yoki universitetning biror talaba almashinuv dasturiga, yoki stipendiya dasturida o'z talabasini tavsiya etib, "tanish-bilishchilik" evaziga talabaning yutib chiqishiga ko'maklashish ham universitetda dars beruvchi o'qituvchilar qo'l urishi mumkin bo'lgan korrupsion holat hisoblanadi. Pora evaziga talabalarni baholash ham o'qituvchilar qo'l uradigan eng ommaviy korrupsion holatlardan biri[2]. Pora sifatida pul yoki biror boshqa manfaat bo'lishi mumkin. Masalan, biror vazirning farzandiga, ushbu vazirlikka o'rndoshlik asosida ishga qabul qilinish evaziga yuqori ball qo'yib berish ham oliygoh o'qituvchisi qilishi mumkin bo'lgan korrupsion ijtimoiy xavfli qilmishdir.

Talabalar. Talabalar ham oliy ta'limda korrupsiya darajasi yuqori bo'lishiga sababchi bo'lgan qatlam vakillari hisoblanadi. Chunki aynan ular juda ko'plab korrupsiyaviy holatlarning oliy ta'lim tizimida sodir etilishiga sababchi bo'ladilar. Masalan, yaxshi baho olish uchun talabalar o'qituvchiga pora beradilar. Pora moddiy va nomoddiy shaklda bo'lishi mumkin. Buning oqibatida esa, intiluvchan talabalar o'zlashtirishida ham tushish kuzatiladi. Masalan, turmush o'rtog'im neft-gaz sanoati yo'nalishida universitetni tamomlagan. Ammo hozir bu sohada ishlamaydi va negaligini so'raganda sohani tushunmasligini aytadi. Axir 4 yil o'qitishgan sizni, nahotki, hech qanday ma'lumotga ega bo'lmasangiz, oliygohni bitirgan sohangiz bo'yicha degan savolga, taxminan, shunday javob qaytargandi, "Men universitetga kirgan yilim bor kuchim bilan bir semester o'qidim. Hamma fanlardan ma'ruzalarni, imtihonga tushishi mumkin bo'lgan savollar javobini yozib yodlab chiqdim. Ammo biror marta kitob ochib ko'rmagan, imtihon savollarini xatto o'qib chiqmagan talaba do'stim shu fandan 5 ball oldi (u yillarda 100 ballik emas, balki baholash tizimi amaliyotda bo'lgan). Shu kundan boshlab harakat qilish foydasiz, kerakli pulni berish "tinch va oson yo'l" deb, qolgan butun talabalik davrimda "pul" bilan o'qidim", deydi. Xullas, bir talabaning adolatsiz hatti harakati 10lab boshqa talabalarning ham ilmga intilishiga to'sqinlik qiladi... Nomdor davlat stipendiyalarini olishda o'qituvchi, ilmiy rahbar, dekanat xodimlarining oldindan yaqin ekanligidan foydalanib, u uchun yon bosishlarini so'rash ham talabaning korrupsiyaviy hatti-harakati hisoblanadi.

Talabalar guruh sardorlari. "Starostalar" nomi bilan mashhur bo'lgan ushbu talabalar qatlami ham oliygohlarda korrupsiya gullab yashnashi uchun sharoit

yaratib beruvchilardandir. Bundan 5-10 yil muqaddam universitetlarda starostalar butun jamoadan belgilab qo'yilgan narxlardagi baholarni olish uchun pul yig'ib fan o'qituvchisiga yetkazib bergan. Besh baho uchun 100 ming so'm, 4 uchun 80 ming so'm ko'rinishida. Hozirgi kunda bu holatlar ancha isloh qilinib, muammolar bartaraf etilgan bo'lishiga qaramay, hali ham korrupsiyaga qo'l urayotgan guruhboshi talabalar mavjud. Masalan, jurnaldagi sababsiz qoldirilgan dasrlar sonini noqonuniy o'zgartirish, imtiyozli dasturlar uchun universitet xodimlaridan yordam so'rash, o'qituvchidan tanish ekanligi va boshqa texnik ishlarida yordam berishi evaziga yaxshi baho qo'yishni talab qilishi singari holatlar guruh sardorlarining universitet hayoti davomida yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy qilmishlaridir.

Dekanat xodimlari. Yuqorida bir necha bora ta'kidlangani singari oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi dekanat xodimlari hamda talabalar o'rtasida eng ommalashgan korrupsiyaviy holat bu muayyan imtiyoz, tanlov, stipendiya yoki mukofotga dekanat mas'ul bo'lgan talabalardan nomzod tavsiya etish so'ralganda, dekanat xodimlari tomonidan sodir etiladigan korrupsiyadir. Ular adolatli va haqqoniy tanlov asosida talabaning iqtidori, o'zlashtirish ko'rsatgichi, ijtimoiy faolligi kabi jihatlardan kelib chiqib tavsiya berish o'rniga o'zlarining qarindoshi bo'lgan yoki tanishi bo'lgan, ularga texnik ishlarni bajarishda yordam bergan talabalarni tavsiya etishadi.

Tyutorlar yoki guruh rahbarlari. Hozirgi kunda har bir guruhdagi talabalar orasidan tayilangan guruh sardorlaridan tashqari, o'qituvchi yoki universitet dekanatida ishlaydiga biror xodim talabalar guruhiga mas'ul shaxs etib belgilab qo'yiladi. Bu xuddi maktab davridagi sinf rahbar statusi demakdir. Bu tur shaxslar "tyutorlar" deb nomlanib, guruh bilan ishlashda ularga muayyan vazifalar va huquqlar beriladi. Masalan, talaba universitetni bitirayotganida universitetdan kadr so'rab tashkilotlar murojaat qilishadi. Eng iqtidorli, bilimli va mas'uliyatli talabalarni tavsiya berishni tyutorlardan talab qilishadi. Aynan shu yerda korrupsiyaviy holat yuzaga keladi. Chunki bu yerda manfaat yashiringan. Yoki boshqa bir holat, umumiy guruh dars qoldiradi yoki boshqa bir noqonuniy yoxud jazo chorasi qo'llanishi kerak bo'lgan ish qilishadi. Jazodan qutulib qolish uchun esa tyutorlarga pora berib masalani hech qanday jazo chorasi qo'llanilmasdan turib hal qilishini so'rashadi.

Universitetning oliy toifa xodimlari: rektorlar, prorektorlar, dekanlar. Oliy ta'lim muassasasini hech qanday moduldan yetarli bilimga ega bo'lmay bitirib

ketadigan talabalar borligini hech kim inkor qila olmaydi. Bugungi kunda talabalikka qabul qilinish korrupsiyada ancha tozalanib, bilimi past yoki yetarli ball yig'a olmagan abituriyentlar "super kontrakt" shaklida sharnoma pulini to'lab o'qishga qabul qilinmoqda. Ammo kirish imtihonida juda past ball yig'gan talabalar oliygohda o'qish davomida ham jonbozlik ko'rsatishi qiyin. Chunki u universitetga qabul jarayonidayoq hamma narsani pul bilan amalga oshirish mumkin ekanligiga guvoh bo'ldi. Endi shu talaba oliygohda o'qiydi. Yana semestr imtihonlarini topshirishga kuchi yetmaydi, qayta o'qiydi va hk. Ammo o'zlashtirish ko'rsatgichi umuman o'zgarmagan talabalar ham oliy ta'lim muassasasini bitiradi. Chunki fan o'qituvchilariga yuqoridan "shu talabaga 3 balini qo'yib bering, bitirib ketsin" degan buyruq keladi... Universitet rektori, dekani kabi yuqori mansab vakillari tomonidan beriluvchi bu buyruq o'z navbatida talabalarni o'qishdan sovutsa, ikkinchi tomondan o'qituvchini obro'sizlantirib, mustaqil ishlashiga to'sqinlik qiladi.

Professorlar. Professorlarning yuqorida ta'kidlangani singari doktorlik ilmiy darajasini yoqlovchilarga ilmiy rahbar bo'lib berish uchun pora talab qilishi haqida ko'p bor eshitamiz[3]. Bu professor o'qituvchilar qilishi mumkin bo'lgan birgina korrupsion holat xolos. Universitetlar ilmiy nufuzi uchun u yerda dars beruvchi professorlar soni katta ahamiyatga ega. Shu bois professorlarga bir nechta universitetlardan u yerda faoliyat yuritishi uchun takliflar tushadi. Shu jarayonda ham professorlar ko'p hollarda korrupsiyaga qo'l uradilar.

Xulosa. Yuqorida biz oliy ta'lim tizimida korrupsiyaviy holatlarni amalga oshiruvchi bir necha tur shaxslarni sanab, ular qo'l urishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy holatlarga misollar keltirdik. Aslida shaxslar tarkibi bundan ancha keng va ular qo'l uradigan korrupsiyaviy holatlar ham turlicha. Bu mamlakatda kelajakda uni boshqaradigan adrlarni yetishtirib beruvchi tizim uchun juda ayanchli holat. Shu sababdan bu kabi holatlarning oldini olish uchun bir qancha keskin choralar ishlab chiqib amaliyotga joriy etish hamda huquq normalarini takomillahtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://qalampir.uz/uz/uz/news/korrupsionrlar-uchun-zhazo-keskin-kuchaytirilmok-da-50801>
2. <https://adu.uz/uz/news/article/1581>
3. <https://daryo.uz/2019/03/25/o%25ca%25bbzbekiston-respublikasi-ta%25ca%25bclim-sohasidagi-korrupsiyani-qanday-yoq-qilsa-boladi>
4. O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentyabrda qabul qilingan O'RQ – 2012-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi // <https://lex.uz/docs/-111189>
5. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan O'RQ – 419-sonli “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-3088008?ONDATE=21.04.2021>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni <https://lex.uz/docs/-4545884>
7. Abdurasulova Q., Qurbonov O. Korrupsiya: Asosiy tushuncha va shakllari (risola). – T.: Falsafa va huquq institute, 2009. – B.64
8. N. Bannayev PhD “Korrupsiyaga qarshi kurash va komplaens Nazorat” o'quv qo'llanma, Toshkent – 2023y.